

Polshaning Gdansk Politehnika Universitetida o'tkaziluvchi o'quv-amaliy seminarida ishtirok etish uchun tanlov e'lon qilinadi



INTRAS



Co-funded by the
Erasmus+ Programme
of the European Union

Andijon mashinasozlik instituti Yevropa Ittifoqi ERASMUS+ dasturining INTRAS (Intelligent Transport Systems: New ICT – based Master's Curricula for Uzbekistan) loyihasi doirasida Polshaning Gdansk Politehnika Universitetida shu yilning may oyida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan 2 haftalik o'quv-amaliy seminarida ishtirok etish uchun talabalar o'rtasida tanlov e'lon qiladi.

Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan talabalar quyidagi mezonlar asosida tanlab olinadi:

1. Ingliz tilida erkin muloqot qila olishlari va tushunishlari (tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'lganlar qo'llab-quvvatlanadi) talab etiladi.
2. Nomzodlar o'z yo'nalishi bo'yicha yaxshi va a'lo baholarga o'qiyotgan bo'lishlari shart.
3. Nomzodning aniq maqsad va vazifalarga egaligi, loyihalarda ishtirok etishda faolligi hisobga olinadi.
4. Nomzod ishchi komissiya uchun o'z taqdimotini o'tkazadi (ingliz tilida).

Tanlovda g'olib bo'lgan 2 nafar talabalar Polshaning Gdansk Politehnika Universitetida o'tkazilishi rejalashtirilgan o'quv-amaliy seminarida ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Safar doirasidagi harajatlar ERASMUS+ fondi mablag'lari hisobidan qoplanadi..

Nomzodlar ishchi komissiya tomonidan suhbat asosida tanlab olinadi.

Nomzodlar quyidagi hujjatlarni Andijon mashinasozlik institutining Xalqaro a'loqalar bo'limiga yetkazishlari yoki elektron shaklda telegramdagi @ASR_1989 manziliga yuborishlari so'raladi!

- Ma'lumotnoma (CV ingliz tilida);
- Pasport nusxasi (elektron pdf shaklda);
- Tilni bilish darajasini tasdiqlovchi hujjat.

Nomzodlarning zaruriy hujjatlari ingliz tilida joriy yilning 10-mart kuniga qadar qabul qilinadi!

